

Kaktus –nima?

Kishilarga kim? O`simlik va hayvonlarga esa nima? deb savol beriladi. Siz ham shunday so`zlarga misol keltira olasizmi?

O`quvchilar misollar keltiradi.

Daftar bilan ishlsh: (10 daqiqa)

1. Kk harfini tegishli rangga bo`yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.
2. Kapalak so`zining chizmasida [k] tovushining o`rnini aniqlang va tegishli katakni bo`yang.
3. Berilgan namunadan bosma Kk harfining bosh va kichik ko`rinishini avval nuqtalar ustidan so`ng o`zlari yozing.
4. So`zlarni nuqtalar ustidan so`ng mustaqil yozing.
5. So`zlarning nomlarini ayting va ularni so`z chizmasiga mos bo`yang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo`ldi?

-qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

22-mavzu: [k] tovushi. Kk harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [k] tovushining talaffuzi va Kk harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so`zlardan [k] tovushining o`rnini aniqlashni o`rganadilar;

- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so`zlar: Kim?, nima?, [k] tovushi ishtirokidagi so`zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi kartochkalar , kesma harflar.

Darsning borishi:

I. Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O`quvchilardan bugungi kun sanasi so`raladi.

Birgalikda kuylaymiz mashqi: O`qituvchi o`quvchilar bilan musiqiy notalarni kuylaydi do re mi fa sol lya si so`raydi. Ularni bir necha bor turli ketma ketlikda kuylash mumkin.

Bugun siz bilan "Birgalikda kuylaymiz" mashqini o'tkazamiz.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida k harfi bilan boshlanadigan so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Qanday so'zlar tuza oldingiz?
- Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?
- Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

2. Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)

O'qituvchi [k] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

kamalak(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 3 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 2 ta tovush. 3-bo'g'inda 2 ta tovush K harfining o'ni 1- va 6- katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko'k rangga bo'yaladi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

1. Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

"Moslashtiring" mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi. (kema, koinot, kometa)

2. Berilgan so'zlarni ko'rsatkich bo'ylab o'qing.

Rasmdan K harfi qatnashgan so'zlarni toping va ularga mos chizmani ko'rsating.

Word Search: A grid with letters o, a, r, u, t, n, l, m, d, k.

Word Analysis: A diagram showing the word 'a-na' branching into 'kak-ku', 'kak-lik', 'ka-ka-du', and 'ka-ma-lak'. A list of words includes Ak-mal, Ma-li-ka, Ka-mol, Ko-mil, and a-na.

Reading Comprehension: A space scene with a rocket, astronaut, and alien. Text boxes contain: "Kitob – bilim bulog'i, O'quvchining o'rtog'i.", "Kitob – xazina, Bilim – boylik.", "O'rganar avval odob Kitob o'qigan bola. Yuzi bo'ladi oftob Kitob o'qigan bola."

33

3. Rasm asosida kichik matn tuziladi. Bu matnga “Kitobxon bola” kabi sarlavha qo‘yish kitobni o‘qiganda qanday qoidalari borligi haqida suhbatlashish tavsiya etiladi.

Maqollar o‘qiladi va mazmuni izohlanadi.

Kitob – bilim bulog‘i,

O‘quvchining o‘rtog‘i.

Kitob – xazina,

Bilim – boylik.

Po‘lat Mo‘minning ”Kitob o‘qigan bola” she‘ri o‘qib beriladi. Undan o‘rganilgan harflarni topish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


O‘rganar avval odob

Kitob o‘qigan bola.

Yuzi bo‘ladi oftob

Kitob o‘qigan bola.

Daftar bilan ishlsh: (10 daqiqa)



1. *Madina bilan chizmadagi barcha K harfini toping.*

2. *Berilgan so‘zlarda tushurib qoldirilgan harfni toping. Topgan harflaringizni ikkalasini ham bo‘sh katakka qo‘yganda so‘z hosil bo‘lsin.*

Kon, non, kalta, katta, tun, kun

3. *Rasmdagi predmetlar nomini ayting.*

Ularni bo‘yang va ortiqchasini toping.



Darsga yakun yasash:

-*Qanday tovush bilan tanishdingiz?*

-*Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

-*Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o‘zingiz mustaqil bajara oldingiz?*

23-mavzu: [o‘] tovushi. O‘o‘ harfi

Dars maqsadi:

- [o‘] tovushining talaffuzi va O‘o‘ harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;

- [o‘] unli tovush ekanligini bilib oladilar.

- so‘zlardan [o‘] tovushining o‘rnini aniqlashni o‘rganadilar;

- so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so‘zlar: diolog, monolog [O‘] tovushi,

Didaktik materiallar: ko‘k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasimli kartochkalar, kesma harflar.